



SCIENCE TIME

ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Yusupova Gulara Ataxanovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti, (PhD)

Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek tili kafedrasi dotsenti, (PhD)

Buranova Shohista Menglibayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek tili kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o'rni hamda imkoniyatlari benihoya katta. Ayniqsa, mustaqil mamlakatimiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ta'limning ustuvor muammosi bo`lib turgan hozirgi sharoitda bu fanning o`qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchilarning nutqini o`stirish, ularga to`g`ri talaffuz me`yorlarini o`rgatib borish, so`z boyligini kengaytirish har bir ona tili o`qituvchisining bosh vazifasidir.

Kalit so'zlar: ko'nikma, malaka, ijodiylik, tafakkur, darsliklar, fikrlash, nutq, ta'lim, raqobatbardosh, lug'atlar.

Аннотация: Роль и потенциал родного языка в формировании национальной гордости у молодежи, воспитании ее в духе наших национальных ценностей, обычаяев и традиций огромны. Особенno для нашей независимой страны образование этого предмета становится еще более важным в нынешней ситуации, когда вопрос подготовки предпринимателя и творческой личности является приоритетной проблемой образования. Основная задача каждого учителя родного языка – развивать речь учащихся на занятиях родным языком, обучать их нормам правильного произношения, расширять их словарный запас

Ключевые слова: умение, компетентность, креативность, мышление, учебники, мышление, речь, образование, соревновательный, словари.

Annotation: The role and potential of the mother tongue in forming national pride in young people, educating them in the spirit of our national values, customs and traditions is immense. Especially for our independent country, education of this subject becomes even more important in the current situation, when the issue of training an entrepreneur and creative person is a priority problem of education. It is the main task of every native language teacher to develop students' speech in native language classes, to teach them the correct pronunciation standards, and to expand their vocabulary.

Key words: skill, competence, creativity, thinking, textbooks, thinking, speech, education, competitive, vocabularies.

Kirish va dolzarbligi.

Jahon miqyosida integratsiyalashuv jarayoni jadallahayotgan ayni vaqtda ona tillarni asrash va o`qitish masalalari muhim vazifaga aylanib bormoqda. Barcha



SCIENCE TIME

tillarda o`qitish tamoyillari zamonaviy tendentsiyalarni o`z amaliyotida sinab ko`rmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning ilg`or o`qitish uslublari ommalashmoqda. Ona tili ta`limi har bir millatning taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi muhim omildir, agar barcha sohada ilmiy renessansni amalga oshirmoqchi bo`lsak, buni ona tili ta`limini takomillashtirishdan boshlash kerak.

Metodlar va o`rganilish darajasi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o`qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi.

Jumladan, Sh.Yusupova¹ va N.Yuldasheva² kabilar o`z tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`qitishni targ`ib qilgan. A.G`ulomov³, M.Saidov⁴ va N.Alavuddinovalar⁵ esa ona tili o`qitish orqali mustaqil ishslash, ijodiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, uzlusiz ta`limda ona tilidan til sathlarini o`qitish metodikasi bo`yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, T.Yusupova gapning bosh bo`laklarini o`qitish metodikasi bo`yicha ilmiy izlanishlar olib borgan⁶. Mazkur dissertatsiya mazmunidan bugungi kunda ona tili ta`limida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari.

O`zbek tili orfoepiyasi, leksikasi, morfologiyasi ilmiy jihatdan muayyan darajada o`rganilgan, biroq bu borada hozirgacha to`plangan nazariy ma`lumotlar uning o`ziga xosligi, milliy xususiyatlarini to`laligicha yoritib berolmaydi. Davr taqozosi bilan XX asrning 40 -yillaridan boshlab boshqa til qoliplari asosida o`lchangan ona tilimizda hamon eski qoliplar asoratidan to`la-to`kis xalos bo`la olmagan o`rinlar seziladi. Jumladan, o`qitish metodikasi ham. Buning natijasi ona tili ta`limiga, ayniqsa, maktabda ona tili o`qitish grammatikaga asoslanib qoldi va nutqiy ko`nikmalar talab darajasida rivojlanmadı.

Umumta`lim maktablarida ona tili, o`zbek tili bo`yicha amalda bo`lgan dasturlarning mazmuni va asosiy yo`nalishlari 1950- yillarning o`rtalarida

¹ Юсупова Ш. Она тили таълими самардорлигини ошириш ва илгор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ. –Т., 1998. – 137 б.

² Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида лугавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилан дисс. –Т., 2002. –123б.

³ Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.

⁴ Saidov M. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараённида тафаккурни ривожлантирувчи ўкув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф. ТДПУ. –Тошкент, 2000. – 25 б.

⁵ Алавуддинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф. ТДПУ. – Т., 2008. – 24 б.

⁶ Юсупова Т. Узлуксиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлакларни ўргатиш: пед. фан. ном-ди дисс. автореф. ТДПИ. –Т., 1998. – 22 б.



SCIENCE TIME

shakllangan bo`lib, shundan beri ular ayrim o`zgarishlar, to`ldirishlar bilan bugunga qadar kun tartibidan tushgani yo`q. Shu asosda darsliklar yaratildi, ular takror-takror davr sinovidan o`tdi. Bir tomondan qaraganda bu boradagi ishlar takomillashib, mukammallashib borganga o`xshab ko`rinadi. Biroq ijtimoiy hayotimizda keyingi chorak asrdan ko`proq o`tgan vaqt mobaynida siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy, ma`rifiy jihatdan keskin o`zgarishlar ro`y berdi; milliy dunyoqarashimizda, shu bilan bog`liq shaxs tarbiyasiga munosabat masalasida yangilanishlar kuzatildi; mustaqillik mafkurasi jamiyatning har bir a`zosi, har bir sohasi, har bir ko`rinishi oldiga yangicha talablarni qo`ydi. Jamiyatimizda ulkan o`zgarishlar ro`y berdi va ro`y bermoqda. Shunday o`zgarishlar sirasida o`zbek tilshunosligi va uning tadriji bilan bog`liq yangilanishlar ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Jumladan, o`zbek tilshunosligida tilni umumiylilik, mohiyat, imkoniyat, sabab xarakteridagi tizim; nutqni esa alohidalik, hodisa, vogelik, oqibat sifatida o`rganuvchi substantsial tilshunoslik yo`nalishi shakllandı, rivojlandı, ulkan yutuqlarni qo`lga kiritdi.

Biroq bu yangilanishlarning barchasi ta`lim tizimi bosqichlarida saralanib, birdek qabul qilingani yo`q. Jumladan, o`zbek substantsial tilshunosligining yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini o`tagan an`anaviy tilshunoslik yutuqlari oliy ta`lim dastur-u darsliklarida ham, o`rta maxsus ta`lim tizimida ham, maktab programmasida ham yangi yo`nalish yutuqlari bilan qorishib ketdi. Bir-birini rad etuvchi nazariy bilimlar maktab darsliklarida ko`plab uchrashi ham achinarli holdir. Atrofimizga nazar tashlasak, ilg`or davlatlarning ko`pida ona tilidan ta`lim mazmuni tubdan yangilandi. “Ta`lim mazmuni sirasida o`quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim”⁷ ligi belgilandi.

O`quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlash ko`nikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma shaklda to`g`ri, ravon ifodalashga o`rgatish uchun ona tili ta`limining mazmunini tubdan yangilash, o`quv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi⁸. Buni amalga oshirishda, tabiiyki, ta`lim vositalari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga qadar bir qator maktab “Ona tili” darsliklari yaratildi, lekin ulardagi o`quv materiallarning hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga to`g`ri keladi. Professorlar Hamid Ne`matov va Asqar G`ulomov ona tili ta`limining bugungi holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish

⁷ Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари.–Т.: Фан, 2006. – 11-б.

⁸ Гуломов А., Нематов Х. Она тили таълими мазмуни.–Т.: Ўқитувчи, 1995. – 27-б.



SCIENCE TIME

kerakligini, o`quvchilarga nimalarni o`rgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali o`rinli asoslagan edilar⁹.

Raqobatbardosh, malakali kadrlarni tarbiyalash ona tili ta`limi oldida turgan dolzarb vazifa bo`lib, uni amalga oshirish umumiy o`rta ta`limning asosiy vositasi bo`lgan darsliklar, ulardan o`rin olgan o`quv materiallarining saviyasiga ko`proq bog`liqidir. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, bugungi kun ona tili ta`limi maqsadi darslarda asosiy ta`lim vositasi faqat darslik bo`lishini taqozo etmaydi. O`qituvchi ham, o`quvchilar ham belgilangan mavzular mohiyati bilan bog`liq tarzda, odatda, “Axborot banki” materiallari (lug`atlar, ma`lumotnomalar, qomuslar, qaydlar va h.lar)ga tez-tez murojjaat etishlari lozim. Afsuski, ona tili ta`limi mazmuni yangilanganiga qariyib yigirma yildan oshgan bo`lsa-da, maktab o`qituvchilarimizning aksariyati hamon faqatgina darslik materiallaridan foydalanishmoqda.

“Ona tili” darsliklarida berilgan nazariy ma`lumotlar orasidagi ayrim chalkashlik, noaniqliklarni bartaraf etish, o`quv materialini darsliklarda qay tarzda berish masalalari hamon azaliy muammoligicha qolmoqda. Ellik-oltmis yil avval qanday bo`lsa, hozir ham “Ona tili” darsliklari mavzuning nazariy jihatiga asosiy e`tiborni qaratib har bir mavzu doirasida ikkitadan beshtagacha qoida bermoqda. Demak, grammatizmdan hamon qutilganimiz yo`q. (Ta`kidlash lozimki, yangi yaratilgan 8-10-11-sinf ona tili darsliklari mazmuni nutqiy ko`nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.) Buning natijasida esa muammo ustiga muammo paydo bo`laveradi, darsda mavzu bo`yicha ko`zlangan maqsadga, aniqrog`i, o`quvchi egallashi zarur bo`lgan malakaga erishish qiyin kechadi. Shu ma`noda mazkur muammoning echimini topish uchun “Ona tili” darsliklari tarixi hamda ularning mazmun-mundarijasini o`rganib chiqish zarur, bu, albatta, alohida tadqiqotni talab qiladi. “Ona tili” darsliklarida mavjud nazariy ma`lumotlar, ularni mustahkamlovchi mashq va topshiriqlar qachondan boshlab va nima uchun maktab darsliklariga kiritilganligining sabablarini o`rganish bu boradagi tasavvurni tiniqlashtiradi. Shuningdek, amaldagi nutqiy ko`nikmalarni shakllantirish jarayonini o`rganish ham nihoyatda muhim. Ona tili mashg`ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq jarayoniga mos ravishda og`zaki, yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Zero, hozirgi zamon fan asoslarini to`liq egallahda ona tilining roli nihoyat darajada muhimdir. Ona tilidan to`liq bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lgan o`quvchigina boshqa fanlarni o`zlashtirishda qiyalmaydi. Yoshlarda milliy

⁹ Ўша асап. –32-б.



SCIENCE TIME

g`ururni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an`analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o`rni hamda imkoniyatlari benihoya katta. Ayniqsa, mustaqil mamlakatimiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ta`limning ustuvor muammosi bo`lib turgan hozirgi sharoitda bu fanning o`qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu o`rinda XX asr boshlarida milliy til uchun kurashgan pedagog, tilshunos va adabiyotshunos A.Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig`ini ko`rsatadurg`on oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo`qotmak millatning ruhini yo`qotmakdur" degan fikrlari umumta`lim maktablarida ona tilini o`qitishning ahamiyati naqadar katta ekanligiga dalildir. Shu ma`noda ona tilini mukammal o`qitish har bir ona tili fani o`qituvchisining sharaflı burchidir. O`zbekiston Respublikasiining "Davlat tili haqida"gi Qonunida: "O`zbekiston o`zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to`liq amal qilinishini ta`minlaydi", – deb ko`rsatilishi o`qituvchilarimiz uchun ona tilini o`qitishning nihoyat darajada sharaflı ekanligidan guvohlik beradi.

Zero, o`zbek tili va adabiyoti o`qituvchisining egallagan malakasi O`zbekistonning kelajagi bo`lgan barkamol avlodni yuksak insoniy fazilatlar sohibi qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham til va ta`lim haqidagi qonunlarda o`zbek tili o`qituvchisi oldiga yangi vazifalar qo`yilgan.

Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchilarning nutqini o`stirish, ularga to`g`ri talaffuz me`yorlarini o`rgatib borish, so`z boyligini kengaytirish har bir ona tili o`qituvchisining bosh vazifasidir.

Demak, ona tili ta`limining bosh maqsadi ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki, yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat ekan, nutq o`stirish muammosi til ta`limida alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ona tili mashg`ulotlarida nutq o`stirish, nutqiy me`yorlarni tarbiyalash va ro`yobga chiqarish yo`llari o`rgatiladi. Shu ma`noda nutq o`stirish mifikda ona tili o`qitishning bosh maqsadi hisoblanadi. Mifikning asosiy vazifasi o`quvchida tinglovchiga huzur bag`ishlovchi ravon, ta`sirchan, ixcham nutqni tarbiyalashdan iborat. O`quvchilar nutqini o`stirish maqsadida bir qator amaliy tadbirlarni qo`llash lozim. Bular:

1. Faqat ona tili va adabiyot darslaridagina emas, balki barcha darslarda nutq madaniyatini birinchi o`ringa qo`yish.
2. O`quvchilar nutqidagi adabiy tilga xos bo`lmagan faktlarni to`plab, ularning adabiy til me`yorlariga zidligini aniq misollarda ko`rsata borish: o`jak—buzoq, doyi-tog`a... kabilar.
3. Ayttilishi bilan yozilishi mos kelmaydigan tovush va so`zlar (go`sht,



SCIENCE TIME

maktab), shuningdek, ayrim shevalarda unlilardagi yo`g`on va ingichka talaffuziga fonetika bo`limidagi mashg`ulotlarda alohida e`tibor berish.

4. Orfoepik bilimlarni mustahkamlash darslari tashkil qilish.
5. Mohir notiqlarning nutqlarini eshittirish (suxandonlar nutqi, monologlar).
6. Sinfdan, maktabdan tashqari mashg`ulotlar (majlisda so`zlash, anjumanlar, badiiy kitob yuzasidan subhatlar) orqali ham nutq o`stirish.

Har bir ona tili o`qituvchisi dars jarayonida yuqoridagilarga amal qilsa, o`quvchilar nutqini o`stirishga zamin yarata oladi.

O`quvchilarning ona tilini har tomonlama o`rganishi ularni mahalliy sheva ta`siridan qutqarib, adabiy talaffuzga odatlantiruvchi birinchi darajali vosita hisoblanadi.

Haqiqatdan, og`zaki nutqni va imlo qoidalarini mukammal o`zlashtirgan o`quvchilar nutqida xatolar bo`lmaydi.

Shuning uchun ona tili darslarida talaffuziga alohida e`tibor beriladi. Chunki og`zaki nutq va imlo qoidalari tilning barcha sathlari bilan uzviy bog`langandir.

Shu bois ham amaldagi dastur, ular asosida yaratilgan yangi darsliklarda ko`p topshiriqli mashqlar tizimi orqali lisoniy hodisalarining amalda qo`llanishiga alohida e`tibor berilgani bejiz emas.

Masalan, 5-sinfda "Shakldosh so`zlar", "Ma`nodosh so`zlar" kabi qator mavzularni o`tishda faqat bilim berish bilan chegaralanib qolmasdan ularni nutqda mustaqil qo`llashga doir mashqlarni ko`proq o`tkazish kerak. Chunki o`quvchi *samo,falak, ko`k...* ma`nodosh qatorini bilsa-yu, undan amalda (matn, bayon, insho) foydalanmay, ha deb *osmon* so`zini ishlatsa, bunday o`quvchi o`rganilgan materialdan o`rinli foylalanmagan bo`ladi. Bunday kamchiliklardan qutilish uchun o`quvchilar nutqini o`stirish mashqlariga ko`proq e`tibor berish kerak. Masalan, bir o`quvchi "tosh" so`zining ma`nodoshlarini aysa, ikkinchisiga uning shakldoshlarini ayttirish; bir o`quvchi "tuz" so`zining ma`nodoshlarini aysa, ikkinchisidan shakldoshlarini, uchinchisidan uyadoshlarini talab qilish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bunday mashqlar orqali o`quvchilar so`zlarning ma`nosinigina tushunib qolmaydi, balki ularni nutqda o`rinli ishlatish malakasiga ham ega bo`ladilar. So`zлarni o`z o`rnida ishlata bilish esa nutq o`stirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Ta`killash joizki, o`quvchilar nutqini o`stirish uchun eng zarurlari - bu bilim, ko`nikma va malaka. Ona tili o`qituvchisi barcha sinflarda, umuman, barkamol avlodni tarbiyalashda milliy ma`naviyat va mafkuraviy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasi bo`lmish ona tilini o`qitish jarayonida har bir darsda



SCIENCE TIME

millat tafakkurini shakllantira borish va rivojlantira borishdek g`oyat mas`uliyatlari va sharaflı vazifani bajaradi.

O`quvchilarning ona tili ta`limi natijasida egallagan bilimlari, hosil qilgan malaka va ko`nikmalari quyidagi mezonlar bo`yicha belgilanadi:

- 1) to`g`ri va ravon o`qish;
- 2) o`z fikrini to`g`ri, izchil va ravon bayon etish mahorati;
- 3) ona tilining qurilishi va imkoiiyatlar bo`yicha bilimlari tizimini o`rganganligi bilan.

Har bir mezon bo`yicha ko`rsatkichlar sinfma-sinf sifat va miqdor jihatdan mukammallahib borishi lozim. Mana shularni hisobga olgan holda o`quvchilarning boshlang`ich ta`limdagi malaka va nazariy bilim unsurlariga tayanadi, ya`ni o`sha mezondan sinfma-sinf ko`paya, murakkablasha boradi. Masalan, boshlang`ichda o`qish san`ati bo`yicha miqdoriy ko`rsatkich 1 daqiqada talaffuz va boshqa talabalarga rioya qilgan holda 80-90 so`zni o`qiy olish, 30 daqiqada berilgan mavzu asosida 8-10 gapdan iborat matn yaratib fikr bayon qila olish; fonetika, imlo, talaffuz, tinish belgilar, so`z va uning ma`nosи, grammatika; so`z tarkibi, o`zak, qo`shimcha, mustaqil va yordamchi so`z turkumlari, nutq madaniyati; adabiy nutq va so`zlashuv nutqi kabilardan ilk zaruriy va nazariy bilim unsurlari DTSning asosiy mezoni qilib belgilangan.

Jamiyatdagi har bir shaxs o`z ona tilini puxta o`rganib olsagina, uning zehni, ongi va umumiy madaniy darajasi ortadi. O`z tilining keng imkoniyatlaridan og`zaki va yozma nutqda bemalol foydalana oladigan shaxsgina boshqa fanlar asosini chuqur o`zlashtirishga dadil qadam tashlay oladi. Og`zaki hamda yozma nutqdan foydalanish malakasiga ega bo`lgan o`quvchi kelajakda mutaxassis sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda faoliyat ko`rsata oladi. Mustaqil turmushga uning ona tilidan o`rgangan bilimlari, to`g`ri yozish va o`qish malakalari, to`g`ri va chiroyli so`zlash san`ati, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko`nikmalari, ish qog`ozlari bilan ishlay olish ko`nikmalari qo`l keladi.

Ona tili o`qitishning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri imloviy savodxonlikni rivojlantirishdir. Har bir ona tili o`qituvchisi barcha darslarda o`quvchilarning imloviy savodxonligi ustida tizimli ravishda ish olib borishi lozim. Bu narsa o`quvchining umumiy savodxonligini oshirishga ko`mak beruvchi birinchi omildir. O`qituvchi orfografik malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, o`quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash yo`llarini belgilab oladi. Orfografik malaka murakkab malaka bo`lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so`zni fonetik tomonidan tahlil qilish, uning



SCIENCE TIME

morfemik tarkibini aniqlash ko`nikmasi kabilarga asoslanadi.

To`g`ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o`quvchidan fikrlash faoliyati ham talab etiladi. Biror to`g`ri yozuv hodisasini o`zlashtirish uchun o`quv va yodda saqlashgina emas, balki tahlil qila bilish ham talab qilinadi. Bunda grammatik va orfografik hodisalarining o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so`z va so`z shakllarini ma`lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan qolipga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim rol` o`ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo`ldosheva D.N. Ona tili ta`limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
2. Yuldasheva Sh.Sh. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida o`qitish metodikasi: aralash ta`limning afzallikkleri. Innovation and Global Issues Congress V. May 2 and 4, 2019. Ankara. INGLOBE ACADEMY. 2019.
3. Mirzaqulov T. Grammatika o`qitishning lingvistik asoslari. –T.: O`qituvchi, 1994. –56 6.
4. Safarova R., Nurjanova R., Ne`matov Sh., Quchkarova F. Zamonaviy darsliklarda kontsentrizm printsipi asosida taqdim etiladigan o`quv materiallarini tanlash va bloklarga ajratish. –T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.
5. G`ulomov A., Qodirov M. Ona tili o`qitish metodikasi. – T., O`qituvchi, 2001. – 221 b.
6. Aminova S. Ona tili darslarida noan`anaviy usullar // Til va adabiyot ta`limi. – Toshkent, 1995. – № 1. – B. 17-18.
7. Bektoshev Sh. Ona tili darslarida o`yin usulidan foydalanish // Til va adabiyot ta`limi. – Toshkent, 1993. – № 5-6. – B. 15-16
8. G`ulomov A., Ne`matov H. Ona tili ta`limi mazmuni.–T.: O`qituvchi ,1995. – 27- b.